



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAHTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC.....	108
Musaeva Shoira Azimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	116
Yuldashev Abduxakim Abdulkarimovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНА.....	122
Анвар Аллабергенов	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
Allanazarova B.K.	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
Razikov Otabek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
Matkabalova Dilorom Xalilullayevna	
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida)	165
Bekjanov Dilmurod Yuldashevich	
Narmetova Dilafruz Azamatovna	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	170
Ахмедова Шахноза Козим кизи	
KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	175
Elbekov Jasur Ergash o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASH.....	181
Sharipova Bibijon Baxtiyorovna	



ВНЕДРЕНИЕ ЦВЕТОВОЙ СИСТЕМЫ ПАКЕТОВ ДЛЯ РАЗДЕЛЬНОГО СБОРА ТВЁРДЫХ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ В Г. ТАШКЕНТЕ: АДАПТАЦИЯ КОРЕЙСКОЙ МОДЕЛИ НА УРОВНЕ ДОМОХОЗЯЙСТВ	189
Джусупов Кубанычбек	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY MEKANIZMLARI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION YECHIMLAR.....	196
Shamuratov Shahzod Janibek o'g'li	
SHAHARSOZLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI JORIY ETISH	200
Eshov Sherko'zi Asatulloyevich	
THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES	205
Kimsanbaeva Maftuna Bakhodirovna	
DETERMINANTS OF STAKEHOLDER SATISFACTION WITH CUSTOMS CLEARANCE IN UZBEKISTAN: AN EMPIRICAL ANALYSIS	209
Khanifakhon Solikhova	
BANDLIKNI TA'MINLASHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI (Xorazm viloyati misolida).....	213
Z. Sh. Matniyozova	
JIZZAX VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI VAHOLASH VA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI PROGNOZLASH	218
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НИЗКОУГЛЕРОДНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	224
Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович	
KORPORATIV BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK JAVOBGARLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	233
Komilova Guli Bagandik qizi	
THE ROLE OF DIGITAL INFRASTRUCTURE IN PROMOTING GREEN ECONOMIC GROWTH: EVIDENCE FROM CENTRAL ASIAN ECONOMIES.....	238
Eshboyev Mirjalol Baxrom o'g'li	
Ozatbekova Ozodaxon Nodirbek qizi	
ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОЕ ИНТЕРВАЛЬНОЕ ОЦЕНИВАНИЕ СРЕДНЕГО ЗНАЧЕНИЯ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ, ПРИТЯГИВАЮЩЕГОСЯ К УСТОЙЧИВОМУ РАСПРЕДЕЛЕНИЮ.....	250
Турсунов Гафур Таирович	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY HISOBOTI MUSTAQIL AUDITINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: BANK FAOLIYATIGA XOS RISK OMILLARINI TASNIFLASH.....	259
Ibragimov Nodirbek Bahodir o'g'li	
ДЕМОКРАТИК TANLOV VA PROGRESSIV SOLIQQA TORTISHNING BARQARORLIGI	266
Malika Sharipova Maxmudjon qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA YASHIL ENERGETIKA MANBALARINI UTILIZATSIYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	273
Ibadov Shoxrux Axmatilloevich	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI IQTISODIY FAOLIYATINI PROGNOZLASH: 2030-YILGACHA SSENARIY TAHLILI.....	277
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA MARKETING DASTURINING O'RNI.....	283
Musayeva Shoira Azimovna	
O'ZBEKISTONDA ISH BERUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	289
Karimberdiyeva Dilrabo Rasulovna	



BANK TAVAKKALCHILIKLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	296
Matkarimova Ayman Jengisbaevna	
O'ZBEKISTONDA AGROSUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY OMILLARI	303
Jo'rayeva Sarvinoz Baxtiyor qizi	
BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	309
Mustafayeva Sevara Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA SHAXSIY SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	314
Qodirova Farangiz Komilovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF TOURISTS' HOTEL SELECTION PREFERENCES IN THE MAJOR TOURISM REGIONS OF UZBEKISTAN.....	320
Sardor Kuvandikov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI	329
Madenova Elmira Nizamatdinovna	
BOSHQARUV SIFATINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	334
Shoyev Davronbek Axmadjonovich	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHI KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA TARMOQNI 2032-YILGACHA RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASH.....	340
Usmonov Mirumar Abdulla o'g'li	
YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJINING DRAYVERI SIFATIDA DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH.....	349
Jannazarova Gauzar Kaipnazarovna	
Raxmatova Sevinch Sobir qizi	
O'ZBEKISTONDA IFRSGA O'TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING BOSHQARUV QARORLARIGA TA'SIRI: UZAUTO MOTORS MISOLIDA.....	353
Samaroxonov Asqarxon Jamolxon o'g'li	
Jo'rayeva Zahro Toshpo'latovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	358
Pyotr Kim	
TOSHKENT VILOYATI BO'STONLIQ TUMANIDA TURISTIK ZONALARNI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIYIQTISODIY AHAMIYATI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA).....	364
Tolibboyev Zafarbek Axror o'g'li	
TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	372
Qarshiboyev Lochinbek Xusan o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ASOSIY VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	379
Muxidinov Ayubbek Nuritdinovich	
QASHQADARYODA NODAVLAT UNIVERSITETLARINING TASHKILIY RIVOJLANISHI: TALABALAR VA XODIMLAR POTENSIALINI TARKIBIY VA DEMOGRAFIK TAHLIL.....	382
Rahimov Sardor Uralovich	



O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING JOYLASHUVINING HOZIRGI HOLATI.....	388
Kudratov Muhammad Rustamovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STATISTIK MA'LUMOTLARNI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAHLIL QILISH IMKONIYATLARI.....	393
Umarov Abbas Nuriddin o'g'li	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ УЗБЕКИСТАНА И РОССИИ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ, СТРУКТУРНАЯ ВЗАИМОЗАВИСИМОСТЬ И СЦЕНАРИИ РАЗВИТИЯ.....	400
Муниса Турдибаева	
TURIZM SOHASIDA SIRKULYAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	410
Yuldosheva Laylo Isroilovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	416
O'ramov Jahongir Jo'rayevich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MUNOSABATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH.....	421
O'lolokulova Feruza Mansurovna	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA YUQORI TEXNOLOGIK USKUNALARNI XARID QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UMUMIY EGALIK QIYMATI (TCO) KONSEPSIYASINING AHAMIYATI	428
Dadamuxamedov Abduvaxob Abduvaxidovich	
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISH HAMDA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH	433
Xalilov Bahromjon Bahodirovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY SUG'URTA MEKANIZMLARINI JORIY ETISH.....	441
Kalenov K.T.	



O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY SUG'URTA MEXANIZMLARINI JORIY ETISH

Kalenov K.T.

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirish va uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda zamonaviy sug'urta mexanizmlaridan samarali foydalanishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Agrar sohaga xos risklarni sug'urta vositalari orqali qoplash va boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Qishloq xo'jaligida sug'urta tizimining barqaror faoliyatini ta'minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, mamlakat agrar sektorida sug'urta tizimining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan obyektiv muammolar va mavjud qiyinchiliklar tahlil etilgan hamda agrar sug'urtaning ustuvor yo'nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta kompaniyalari, sug'urta polisi, indeks asosidagi agrosug'urta modeli, meteorologik indeks, NDVI (vegetatsiya indeksi), qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash, davlat-xususiy sheriklik (PPP), «Agrosug'urta barqarorlik jamg'armasi», raqamli agrosug'urta platformasi.

Аннотация. Проанализированы актуальные вопросы эффективного использования современных страховых механизмов для развития сельского хозяйства Узбекистана и обеспечения его финансовой устойчивости. Освещены теоретические и практические аспекты страховой защиты и управления рисками, характерными для аграрного сектора. Разработаны предложения и рекомендации, направленные на обеспечение устойчивого функционирования системы агрострахования. Кроме того, проанализированы объективные проблемы и трудности, препятствующие развитию системы страхования в аграрном секторе страны, а также обоснованы приоритетные направления развития агрострахования.

Ключевые слова: страхование, страховые компании, страховой полис, модель агрострахования на основе индекса, метеорологический индекс, NDVI (вегетационный индекс), страхование сельскохозяйственных рисков, государственно-частное партнерство (PPP), «Фонд устойчивости агрострахования», цифровая платформа агрострахования.

Abstract. Topical issues related to the effective use of modern insurance mechanisms for the development of agriculture and the enhancement of its financial sustainability in Uzbekistan are analyzed. The theoretical and practical aspects of insuring and managing risks inherent in the agricultural sector are examined. Recommendations and proposals aimed at strengthening the sustainability of the agricultural insurance system are developed. In addition, the objective challenges hindering the development of agricultural insurance in the country are identified and analyzed, while the priority directions for improving agroinsurance are substantiated.

Keywords: insurance, insurance companies, insurance policy, index-based agroinsurance model, meteorological index, NDVI (Vegetation Index), agricultural risk insurance, public-private partnership (PPP), Agroinsurance Sustainability Fund, digital agroinsurance platform.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi dunyoning ko'plab mamlakatlari, xususan, O'zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biridir. U aholini bevosita iste'mol qilinadigan meva-sabzavot, go'sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan, shuningdek, turli ishlab chiqarish tarmoqlari uchun zarur bo'lgan xomashyo bilan ta'minlaydi. Biroq qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi asosan ochiq havoda amalga oshirilgani sababli, boshqa ko'plab sohalarga nisbatan tabiiy hodisalar ta'sirida yuzaga keladigan turli xavf-xatarlarga ko'proq moyil bo'ladi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi hayvonlari va o'simliklari kasalliklari ham ishlab chiqarish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, mahsulot narxlarining o'zgarishi, bozor kon'yunkturasidagi tebranishlar kabi iqtisodiy omillar ham xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ta'sir etib, moliyaviy yo'qotishlar yuzaga kelishiga



sabab bo'lishi mumkin. Shu bois agrar sohada sug'urta xizmatlarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda, qishloq xo'jaligida sug'urta xizmatlarini rivojlantirish ushbu sohaning barqarorligini ta'minlash yo'lidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Buning uchun xavf-xatarlarni samarali boshqarish hamda ular bilan bog'liq masalalarni o'z vaqtida va sifatli hal etish muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligini sug'urtalash sohasi iqtisodiy xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Ilmiy adabiyotlarda sug'urtaning qishloq xo'jaligidagi o'rni asosan tavakkalchiliklarni kamaytirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda fermer xo'jaliklarining barqaror daromadini ta'minlash nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida M. Alimov o'zining **"Qishloq xo'jaligini sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'nalishlari"** nomli ishida agrar sug'urtaning milliy modelini yaratish, majburiy sug'urta elementlarini joriy etish hamda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich optimallashtirish zarurligini ta'kidlaydi [1]. Shuningdek, N. Abdurashidov **"O'zbekistonda qishloq xo'jaligida sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari"** nomli maqolasida fermerlar o'rtasida sug'urta madaniyatini yuksaltirish va huquqiy bazani mustahkamlash muhimligini qayd etadi [2].

Xorijiy tadqiqotchilar ishlarida agrar sug'urtaga nisbatan tizimli va makroiqtisodiy yondashuv ustunlik qiladi. Jumladan, Hazell va Varangis **"Agricultural Insurance in Developing Countries: The Role of Governments and Markets"** nomli ishida rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat tomonidan subsidiyalanadigan sug'urta modellari ijtimoiy samaradorlikni oshirishda muhim o'rin tutishini asoslab bergan [3]. Mahul va Stutley tomonidan tayyorlangan Jahon bankinging **"Government Support to Agricultural Insurance: Challenges and Options for Developing Countries"** hisobotida indeks asosidagi sug'urta modellarining afzalliklari, xususan, sug'urta to'lovlari tezkor amalga oshirish va ma'muriy xarajatlarni qisqartirish imkoniyatlari tahlil qilingan [4].

Yevropa va AQSH tajribasi o'rganilgan OECD hisobotida raqamli texnologiyalar, jumladan, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari hamda **Big Data** tahlili agrar sug'urtada xatarlarni aniq baholash va avtomatlashtirilgan sug'urta to'lovlari tizimini joriy etish imkoniyatlarini kengaytirishi ta'kidlangan [5]. Turkiya va Xitoy tajribasini tahlil qilgan Gong va Kul esa davlat-xususiy sheriklikka asoslangan modellar qishloq xo'jaligida sug'urta qamrovini kengaytirishda samarali natijalar berganini qayd etadi [6].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jahon amaliyotida qishloq xo'jaligini sug'urtalash samaradorligi institutsional muhitning barqarorligi, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda fermerlar o'rtasida sug'urta savodxonligining yuqori bo'lishi kabi omillarga bog'liq. Milliy va xorijiy olimlar umumiy xulosa sifatida zamonaviy qishloq xo'jaligi sug'urtasi barqaror agrar siyosatning ajralmas tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi qishloq xo'jaligini sug'urtalash bilan bog'liq mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot doirasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning samarali va ta'sirchan vositalaridan biri bo'lgan sug'urta tizimi tahlil qilindi. Agrar sektor rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va mavjud muammolar tahlili, shuningdek, sug'urta sohasidagi dolzarb yo'nalishlar hisobga olingan holda ushbu sohani yanada takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar taklif etildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results, Анализ и результаты).

Qishloq xo'jaligi O'zbekistonda milliy YAIMning taxminan 24,3 foizini tashkil etadi hamda mehnat resurslarining qariyb 26 foizi ushbu sohada band. 2024-yilda meva va rezavor mahsulotlar bozorida bir million tonnadan ortiq meva mahsulotlari eksport qilingan [7]. 2023-yilda bog'lar va uzumzorlarda sovuq urishi natijasida zarar ko'rgan yerlar jami taxminan 13 000 gektarni tashkil etgan bo'lib, shundan 9 000 gektari bog'lar va 4 000 gektari uzumzorlarga to'g'ri kelgan. Natijada 207 000 tonna mahsulot zarar ko'rgan [8].

O'zbekistonga xos keskin kontinental iqlim, tobora kuchayib borayotgan suv tanqisligi hamda so'nggi yillarda dunyo miqyosida kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari oqibatida yuzaga kelayotgan tabiiy hodisalar qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Erta muzlash, bo'ronlar, ekologik hodisalar, qurg'oqchilik, turli hasharotlar hujumi va jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik rejalashtirilgan hosil hajmiga ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu sababli qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun xavflarni samarali boshqarish mexanizmlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mexanizmlarning eng samarali va amaliyotda o'zini oqlagan turlaridan biri sug'urta hisoblanadi.



Shu bilan birga, O'zbekistonda sug'urta xizmatlarini yanada rivojlantirish va ularning qamrovini kengaytirish zarurati xalqaro tajriba bilan taqqoslanganda yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi sug'urtasi bozorida faollikning kamayishi kuzatilmoqda. Bunga uzoq yillar davomida qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha asosiy sug'urtalovchi bo'lib kelgan **O'zagrosug'urta** aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining biznes strategiyasida yuz bergan o'zgarishlar ham ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, kompaniya faoliyatida boshqa sug'urta turlariga ustuvorlik berilishi natijasida qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ayrim risklarni sug'urtalash hajmi qisqardi. Natijada ekinlar hosili bilan bog'liq risklarni sug'urtalash qamrovini yanada kengaytirish zarurati yuzaga keldi.

• Shu borada **O'zagrosug'urta** kompaniyasining so'nggi yillardagi qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha faoliyatidagi o'zgarishlarni quyidagi ko'rsatkichlar orqali kuzatish mumkin:

• 2017-yilda kompaniya tomonidan qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlari hajmi 6,4 mln yevroni tashkil etgan, berilgan sug'urta polislar soni esa 109 tani tashkil etgan;

• 2018–2019-yillarda agrosug'urta bozorida berilgan sug'urta polislar sonining kamayishi kuzatilgan;

• 2020-yilda **O'zagrosug'urta** tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlari hajmi 563,5 mlrd so'mni tashkil etgan;

• 2021-yilda kompaniyaning ekinlar sug'urtasi portfelida jami sug'urta mukofotlari 1,9 mln yevroni tashkil etgan bo'lib, yil yakuniga ko'ra amaldagi sug'urta polislar soni 178 taga yetgan.

Yuqorida keltirilgan ekin maydonlarining sug'urtalanganligi, ular bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari hamda sug'urta hodisalari yuzasidan amalga oshirilgan qoplamalar to'g'risidagi batafsil statistik ma'lumotlar muntazam e'lon qilinmaydi. Shu bilan birga, ijobiy natija sifatida 2025-yilda bog'dorchilik ekinlarini muzlashdan himoya qilishga mo'ljallangan maxsus sug'urta mahsulotlari (shamol, muz va shamol zarari kabi xavflar bo'yicha) 5 ta viloyatda joriy etilmoqda. Hukumat ushbu sug'urta mahsulotlari bo'yicha sug'urta mukofotining 50 foizini subsidiyalamoqda [9]. Mazkur yo'nalish bo'yicha ma'lumotlar bazasini yanada takomillashtirish, sug'urta kompaniyalari, bozor ishtirokchilari va davlat organlari tomonidan taqdim etilayotgan statistik ma'lumotlarning o'zaro uyg'unligi hamda batafsillik darajasini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligi sug'urtasi tizimini yanada rivojlantirish nuqtayi nazaridan quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Agrar ishlab chiqaruvchilarning sug'urta imkoniyatlari bo'yicha xabardorligini oshirish. Ko'plab fermerlarning sug'urta tizimi va uning huquqiy asoslari haqidagi bilimlarini yanada mustahkamlash zarur.

2. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish. Ko'plab mamlakatlarda qishloq xo'jaligi sug'urtasini qo'llab-quvvatlovchi davlat dasturlari muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Shuningdek, ayrim sug'urtaviy imtiyozlar, jumladan eksport qilinadigan meva-sabzavot mahsulotlari bo'yicha sug'urta mukofotlarining bir qismini davlat mablag'lari hisobidan qoplash mexanizmlari haqida fermerlarning xabardorligini oshirish muhimdir. Shu bois ommaviy axborot vositalari orqali agrar soha vakillarini muntazam xabardor qilish tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

3. Qishloq xo'jaligi sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi sug'urta kompaniyalari sonini ko'paytirish. Hozirgi vaqtda ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan yirik kompaniyalar soni cheklangan. Mavjud kompaniyalarning aksariyati asosan kredit risklarini sug'urtalash bilan shug'ullanadi. Shu munosabat bilan raqobat muhitini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish muhimdir.

4. Sug'urta infratuzilmasini rivojlantirish. Sug'urta tizimining samaradorligini oshirish uchun zamonaviy laboratoriyalar, baholash markazlari va ekspertiza tizimini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq.

5. Sug'urta tizimida ishonch va shaffoflikni mustahkamlash. Sug'urta hodisalari bo'yicha hujjatlarning haqqoniyligini ta'minlash, to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish sug'urta tizimiga bo'lgan ishonchni yanada oshirishga xizmat qiladi.

6. Normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan mexanizmlarni izchil amalga oshirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-oktabrdagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-387-son¹ qarorida nazarda tutilgan sug'urta sohasidagi imtiyozlarni amaliyotga keng joriy etish hamda O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 14-apreldagi "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida"gi O'RBQ-1056-son² Qonunda belgilangan qishloq xo'jaligini sug'urtalash jamg'armasini tashkil etish bo'yicha ishlarni izchil davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan yo'nalishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sug'urtasi tizimini yanada takomillashtirishga hamda agrar sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-oktabrdagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-387-son qarori: <https://www.lex.uz/uz/docs/-6229994>

2 O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 14-apreldagi "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida"gi O'RBQ-1056-son Qonun: <https://lex.uz/uz/docs/-7477632>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston agrar sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohada sug'urta xizmatlarini zamonaviy talablar darajasida yo'lga qo'yish bir vaqtning o'zida ham sug'urta bozorining rivojlanishiga, ham qishloq xo'jaligining barqaror o'sishi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Sug'urta nafaqat iqlim va tabiiy xavf-xatarlardan himoyalash vositasi, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy mexanizm ham hisoblanadi. Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun agrar ishlab chiqaruvchilarning xabardorligini oshirish, sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, sug'urta infratuzilmasini takomillashtirish, ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalarini qo'llab-quvvatlash hamda sug'urta tizimining shaffofligini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

an'anaviy hosil yo'qotilishini baholash mexanizmining subyektivligi, yuqori xarajat talab qilishi hamda fermerlarning ishonch darajasini yanada oshirish zaruratidan kelib chiqib, indeks asosidagi agrosug'urta modelini takomillashtirish bo'yicha metodik yondashuv ishlab chiqildi hamda shu asosda meteorologik va NDVI (vegetatsiya indeksi) ma'lumotlariga asoslangan indeks sug'urta modelini joriy etish taklif etildi;

sug'urta kompaniyalarining yirik tabiiy ofatlar sharoitida moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash zaruratidan kelib chiqib, qishloq xo'jaligida davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida sug'urta fondini shakllantirish modeli ishlab chiqildi hamda ushbu model asosida davlat kafolati va xususiy sektor mablag'lariga tayanuvchi **«Agrosug'urta barqarorlik jamg'armasi»**ni tashkil etish taklif etildi;

qog'oz hujjatlar asosida sug'urta shartnomalarini rasmiylashtirish va sug'urta qoplamalarini to'lash jarayonlarini raqamlashtirish maqsadida raqamli agrosug'urta platformasini joriy etish konsepsiyasini ishlab chiqish hamda yagona «Digital Agrolnsurance» platformasini yaratish taklif etildi;

barcha hududlar uchun bir xil tariflarning qo'llanilishi hududlarga xos risk darajasini to'liq aks ettirmasligini inobatga olib, fermerlar uchun differensiallashgan tarif siyosatini ishlab chiqish metodikasi takomillashtirildi. Shu asosda hududiy risk indeksi (HRI) formulasi ishlab chiqildi, sug'urta mukofoti miqdorini regressiya tahlili asosida aniqlash metodikasi taklif etildi hamda risk-menejment darajasi yuqori bo'lgan fermerlarga bonus-malus tizimini qo'llashning samaradorligi asoslab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алимов, М. (2020). Қишлоқ хўжалигини суғурталаш тизимини такомиллаштириш йўналишлари. Тошкент: ТМИ нашриёти.
2. Абдурашидов, Н. (2019). Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигида суғурта хизматлари бозорини ривожлантириш масалалари. «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» журналы, № 3.
3. Hazell, P., & Varangis, P. (2018). *Agricultural Insurance in Developing Countries: The Role of Governments and Markets*. World Bank Research Working Paper.
4. Mahul, O., & Stutley, C. J. (2010). *Government Support to Agricultural Insurance: Challenges and Options for Developing Countries*. Washington, DC: The World Bank.
5. OECD. (2021). *Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2021: Addressing the Challenges Facing Food Systems*. Paris: OECD Publishing.
6. Gong, B., Xu, H., & Zhang, L. (2020). Public-private partnership models in agricultural insurance: Evidence from China and Turkey. *Journal of Agricultural Economics*, 71(4), 921–936.
7. UNDP.org — United Nations Development Programme (Geneva Office, 2024).
8. Kursiv Media (Uzbek edition). "Uzbekistan implements agricultural risk insurance". 2024-yil 27-noyabr.
9. Uzdaily.uz. "Uzbekistan passes draft law on agricultural risk insurance".



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>